

**HUUDUYI PARRANDACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA ULARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Shermatov Abbos Jumayevich*  
*GULDU, mustaqil tadqiqotchisi*  
+998943518088

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada hududiy parrandachilik klasterlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda ularni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda parrandachilik tarmog‘ini klaster asosida tashkil etishning iqtisodiy afzalliklari, xususan, ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, xizmat ko‘rsatish va sotuv jarayonlarining yagona tizimga integratsiyalashuvi natijasida samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Parrandachilik, hududiy klaster, parrandachilik klasteri, boshqaruv tizimi, iqtisodiy samaradorlik, kooperatsiya, integratsiya, raqobatbardoshlik, oziq-ovqat xavfsizligi, logistika, innovatsiya, investitsiya, raqamli boshqaruv, qo‘shimcha qiymat.

**Kirish.** Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, parrandachilik tarmog‘ini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish, ayniqsa uni klaster usulida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki parrandachilik aholini sifatli, parhezboq va nisbatan arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda, ichki bozor barqarorligini saqlashda, yangi ish o‘rinlari yaratishda va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Parrandachilik tarmog‘ining an‘anaviy boshqaruv shakllari ko‘pincha ishlab chiqarish zanjirining uzviy bog‘lanmaganligi, ozuqa ta‘minotidagi uzilishlar, qayta ishlash va sotish tizimlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi bilan tavsiflanadi. Bu esa tarmoqning umumiy samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aynan shunday sharoitda parrandachilikni hududiy klasterlar asosida tashkil etish ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, transportirovka va sotuv bosqichlarini yagona iqtisodiy makonda birlashtirish orqali yuqori natijadorlikka erishish imkonini beradi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hududiy parrandachilik klasterlarini rivojlantirish nafaqat alohida xo‘jaliklar samaradorligini oshiradi, balki butun hududning iqtisodiy faolligini kuchaytiradi. Klaster yondashuvi asosida ishlab chiqarish kooperatsiyasi mustahkamlanadi, ichki va tashqi bozorlar bilan aloqalar kengayadi, innovatsion texnologiyalar joriy etilishi tezlashadi hamda resurslardan foydalanish darajasi oshadi.

Shu bilan birga, klasterlarni boshqarish tizimini ilmiy asosda takomillashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zamonaviy iqtisodiy va raqamli mexanizmlardan foydalanish tarmoq barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda hududiy parrandachilik klasterlarini rivojlantirish va ularni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganishda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli yondashuv tashkil etib, unda hududiy parrandachilik klasterlari o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, moliyalashtirish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv elementlari yagona iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etildi. Ushbu yondashuv klaster faoliyatining har bir bo'g'inini alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan mexanizm sifatida baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya usuli yordamida hududiy parrandachilik klasterlarining nazariy mohiyati, iqtisodiy mazmuni, boshqaruv tizimining tarkibiy elementlari hamda ularning amal qilish xususiyatlari umumlashtirildi. Shu bilan birga, klaster yondashuvining agrar tarmoqlarda qo'llanishiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy qarashlar o'rganildi, mavjud ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, tadqiqot mavzusiga mos konseptual asos shakllantirildi.

**Asosiy qism.** Hududiy parrandachilik klasterlarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Parrandachilik qishloq xo'jaligining nisbatan tez aylanadigan, kapital qaytimi yuqori va aholining oqsilga bo'lgan talabini qondirishda strategik ahamiyatga ega tarmog'idir. O'zbekistonda ushbu sohaning so'nggi yillardagi o'sish dinamikasi hududiy klasterlashuvni chuqurlashtirish uchun iqtisodiy asos mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, 2024-yilda respublika bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarda 310,9 ming tonna parranda go'shti ishlab chiqarilgan bo'lsa, tuxum ishlab chiqarish 8 805,4 mln donaga yetgan. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichi 2023-yildagi 8 487,4 mln dona va 2022-yildagi 8 129,2 mln donaga nisbatan barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Mazkur statistik o'sish hududiy parrandachilikni oddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida emas, balki ozuqa bazasi, inkubatsiya, veterinariya xizmati, logistika, qayta ishlash, marketing va savdo zanjirlarini birlashtiruvchi integratsiyalashgan klaster tizimi sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki parrandachilikda yuqori samaradorlik faqat yakka xo'jalik faoliyati bilan emas, balki qiymat zanjirining barcha bo'g'inlari o'rtasidagi uzviy iqtisodiy aloqalar orqali ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy klaster modeli resurslardan birgalikda foydalanish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va yakuniy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv davlat siyosatida ham o'z aksini topgan bo'lib, Prezidentning PQ-34-son qarorida 2025-yilda parranda

go'shti va tuxum ishlab chiqarish prognozlarini, shuningdek hududlarda parrandachilik kooperatsiyasi tizimi asosida aholi bandligini ta'minlash vazifalari belgilangan. Hududiy klasterlarni shakllantirish zarurati, avvalo, tarmoqning hududlar bo'yicha notekis rivojlanganligi bilan izohlanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda respublikada ishlab chiqarilgan tuxumning eng katta ulushi Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri kelgan va u 17,9 %ni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyati – 15,5 %, Andijon viloyati – 8,9 %, Namangan viloyati – 8,0 % ulush bilan nisbatan yuqori natija qayd etgan. Bu holat ayrim hududlarda parrandachilik uchun ishlab chiqarish, logistika va bozor infratuzilmasi nisbatan shakllanganini, boshqa hududlarda esa ushbu tizimlarni kuchaytirish zarurligini anglatadi. Demak, klasterlashuv siyosati hududiy ixtisoslashuv tamoyiliga tayangan holda olib borilishi, ya'ni resurs, talab va infratuzilma salohiyatiga ko'ra hududlar differensial rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Parrandachilik klasterini samarali boshqarish uchun uning xomashyo bazasi, ayniqsa, ozuqa bilan ta'minlanganlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, parrandachilik mahsuloti tannarxida yem-xashak xarajatlari eng katta ulushni egallaydi. Shu sababli hududiy klaster tarkibida omuxta yem ishlab chiqarish korxonalarini, don va oqsil manbalarini yetishtiruvchi fermerlar, saqlash va logistika infratuzilmasi yagona boshqaruv zanjiriga birlashtirilishi lozim. Bunday vertikal integratsiya bozor kon'yunkturasidagi keskin tebranishlarning salbiy ta'sirini yumshatadi va ishlab chiqarish barqarorligini oshiradi. 2024-yil 1-yanvar holatida respublikadagi jami parranda soni 103 046,5 ming boshni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,8 %ga oshgani, 2024-yil 1-iyul holatida esa barcha toifadagi xo'jaliklarda parranda soni 99 291,8 ming boshga yetgani sohada resurs bazasi kengayayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yil 1-iyul holatida eng katta ulush dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelib, ularda 51 257,2 ming bosh parranda mavjud bo'lgan. Bu esa klaster tizimida aynan kichik ishlab chiqaruvchilarni kooperatsiyaga jalb etish boshqaruvning muhim yo'nalishi ekanini anglatadi. Shu jihatdan, hududiy parrandachilik klasterlarini rivojlantirishda kooperatsiya mexanizmi markaziy o'rin tutadi. Aholi tomorqalari, dehqon xo'jaliklari va kichik parrandachilik subyektlari ko'pincha moliyaviy resurslarning cheklanganligi, veterinariya xizmatlari sifati pastligi, naslli jo'ja va sifatli yemga doimiy kirish imkonining yetishmasligi sababli ishlab chiqarish samaradorligini to'liq ta'minlay olmaydi. Klaster modeli esa yirik yetakchi korxonada ushbu subyektlarni birlashtirib, ularga jo'ja, yem, dori vositalari, texnologik ko'rsatmalar, kredit va kafolatli xarid xizmatlarini taklif etadi. Natijada kichik ishlab chiqaruvchilar mustaqil risklarni kamaytiradi, yirik korxonada esa xomashyo bazasini kengaytiradi. PQ-34 qarorida ham hududlarda parrandachilik kooperatsiyasi asosida bandlikni oshirish masalasining alohida belgilanishi mazkur modelning institutsional ahamiyatini tasdiqlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy parrandachilik klasterlarini rivojlantirish O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorda parrandachilik mahsulotlari taklifini kengaytirish, aholi bandligini oshirish va agrar tarmoqda yuqori qo'shilgan qiymat yaratishning muhim omillaridan biridir. Respublikada 2024-yilda 310,9 ming tonna parranda go'shti va 8 805,4 mln dona tuxum ishlab chiqarilgani, tuxum ishlab chiqarish hajmi oldingi yillarga nisbatan barqaror o'sib borayotgani tarmoqda klasterlashuvni chuqurlashtirish uchun yetarli iqtisodiy baza mavjudligini ko'rsatadi. Tahlillar parrandachilik tarmog'ida hududlar kesimida rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi. Shu sababli klasterlarni shakllantirishda hududlarning resurs salohiyati, yem bazasi, logistika imkoniyatlari, bozor sig'imi va qayta ishlash quvvatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuv zarur. Aks holda ayrim hududlarda ishlab chiqarishning o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, boshqaruv, ta'minot va sotuv zanjirlaridagi nomutanosibliklar umumiy samaradorlikni cheklab qoladi.

Tadqiqot shuni ham tasdiqlaydiki, hududiy parrandachilik klasterlarining samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki inkubatsiya, naslchilik, omuxta yem ishlab chiqarish, veterinariya xizmati, qayta ishlash, saqlash, logistika va marketing bo'g'inlari o'rtasidagi integratsiya darajasi bilan belgilanadi. Aynan shu integratsiya mahsulot tannarxini pasaytiradi, sifatni barqarorlashtiradi va ichki hamda tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi. Prezidentning 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son qarorida ham parranda go'shti va tuxum ishlab chiqarish prognozlarini, kooperatsiya asosida aholi bandligini ta'minlash hamda eksport ko'rsatkichlari alohida belgilab berilgani klaster boshqaruvining strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Takliflar sifatida,

Birinchidan, hududiy parrandachilik klasterlarini tashkil etishda hududlarning ixtisoslashuv xaritasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Unda har bir viloyatning yem-xashak bazasi, iste'mol bozori, inkubatsiya quvvati, mavjud korxonalar va logistika infratuzilmasi asosida rivojlanish modeli belgilanishi kerak. Bu resurslarning samarasiz taqsimlanishining oldini oladi va hududlar bo'yicha klasterlarning optimal joylashuvini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, parrandachilik klasterlari tarkibida omuxta yem ishlab chiqarish va xomashyo bazasini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Chunki tarmoq tannarxida yem xarajatlari eng katta ulushni egallaydi. Shu bois don yetishtiruvchi fermerlar, yem ishlab chiqaruvchilar va parrandachilik korxonalari o'rtasida uzoq muddatli kontraktatsiya tizimini joriy etish zarur. Bu xarajatlar barqarorligini ta'minlab, mahsulot narxidagi tebranishlarni kamaytiradi.

Uchinchidan, klaster boshqaruvida raqamli monitoring platformasini joriy etish kerak. Ushbu platforma orqali jo'ja soni, tuxumdorlik, yem sarfi, ozuqa konversiyasi, veterinariya holati, nobud bo'lish darajasi, ishlab chiqarish tannarxi va logistika

ko‘rsatkichlari real vaqt rejimida kuzatilib borilishi lozim. Bu boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Chorvachilik va parrandachilikni yanada rivojlantirish, sohada qiymat zanjiri yaratishni jadallashtirish hamda ozuqa bazasini ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ-34-son qaror, 2025-yil 30-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini yanada mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: PQ-5146-son qaror, 2021-yil 14-iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida: PF-16-son farmon, 2025-yil 30-yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Agriculture, Forestry and Fisheries: 2025-yil yanvar–iyun yakunlari bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Agriculture, Forestry and Fisheries: 2025-yil yanvar–sentyabr yakunlari bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2025.